



SIRDARYO VILOYATI STATISTIKA BOSHQARMASI

SIRDARYO VILOYATIDA CHAKANA VA ULGURJI SAVDO TOVAR AYLANMASI



*Dastlabki ma'lumot
2024- yil yanvar-dekabr
oylari*

*Tashqi iqtisodiy faoliyat va savdo
statistikasi bo'limi
Тел. 67-236-70-00*

Statistik ma'lumotlar jamiyatda sodir bo'layotgan ijtimoiy-iqtisodiy hodisa va jarayonlarni tavsiflash va boshqarishning eng muhim vositasidir. Hozirda yuqori sifatli statistik ma'lumotlardan foydalanmasdan davlat siyosatida to'g'ri boshqaruv qarorlarini qabul qilish imkonsiz. Shular qatorida savdo statistikasi ko'rsatkichlarini shakllantirish ham muhim ahamiyatga ega hisoblanadi. Ulgurji va chakana savdo hamda umumiy ovqatlanish korxonalari savdo aylanmasi statistikasi ko'rsatkichi shular jumlasidan.

Chakana savdo aylanmasining o'sish sur'ati, % da



2025- yil 1- yanvar holatiga chakana savdo sohasida faoliyat ko'rsatayotgan tijorat korxonalari soni 2 080 tani tashkil etib, shundan, faoliyat ko'rsatayotgan yirik korxonalar soni 61 tani, kichik korxona va mikrofirmalar soni 2 019 tani tashkil qildi.

Shu jumladan, savdo sohasida yuridik shaxs tashkil etmasdan faoliyat olib borayotgan YATT va uyushmagan savdo (jismoniy shaxslar)ning kuzatuvlari asosida yig'ilgan ma'lumotlar, chakana savdo ko'rsatkichlariga kiritilgan.

Chakana savdo aylanmasi – savdo sohasida yakuniy iste'mol uchun aholiga tovarlarni donalab yoki ko'p bo'lmagan miqdorlarda naqd pulga (bank kartalari orqali) sotishni nazarda tutuvchi faoliyat.



Yuqorida qayd etilgan tadbirkorlik subyektlari faoliyati natijasida, 2024- yilning yanvar-dekabr oylarida Sirdaryo viloyatining chakana savdo tovar aylanmasi 6 495,4 mlrd so'mni tashkil etib, 2023- yilning yanvar-dekabr oylariga nisbatan 108,7 % ga yetdi.


Jumladan, yirik korxonalarining tovar aylanmasi 371,1 mlrd so'mni (o'sish sur'ati 88,1 %), kichik biznes va xususiy tadbirkorlik subyektlarining tovar aylanmasi 6 124,3 mlrd so'mni (o'sish sur'ati 110,2 %), shundan uyushmagan savdo tovar aylanmasi 532,1 mlrd so'mni (o'sish sur'ati 111,5 %) tashkil etdi.

	Jami, mlrd so'm	2023- yil yanvar-dekabr oylariga nisbatan, foizda
Sirdaryo viloyati	6 495,4 *)	108,7
Guliston sh.	2 273,9	110,3
Shirin sh.	87,5	107,5
Yangiyer sh.	586,2	109,7
<i>tumanlar:</i>		
Boyovut	346,5	107,9
Guliston	294,4	107,1
Mirzaobod	432,4	109,3
Oqoltin	301,0	108,1
Sardoba	195,0	108,3
Sayxunobod	250,3	107,8
Sirdaryo	1 053,7	107,2
Xovos	230,8	107,4

*) Hududlarga taqsimlanmagan hajmni hisobga olgan holda


2024- yilning yanvar-dekabr oylarida, 2023- yilning yanvar-dekabr oylariga nisbatan viloyatning, Guliston sh. (**110,3 %**), Yangiyer sh. (**109,7 %**), Mirzaobod (**109,3 %**), Sardoba (**108,3 %**) Oqoltin (**108,1 %**) tumanlarida chakana savdo tovar aylanmasining eng yuqori o'sish sur'atlari qayd etildi.

Chakana savdo tovar aylanmasi va o'sish sur'ati dinamikasi (yanvar-dekabr)




So'nggi 5 yillikda (2020-2024- yillar) chakana savdo tovar aylanmasining yuqori o'sish sur'ati 2021- yilda kuzatildi. Bunda chakana savdo tovar aylanmasi 2020- yilning mos davriga nisbatan 110,8 % ni tashkil qildi.

2024- yil yanvar- dekabr oylari uchun chakana savdo tovar aylanmasining o'sish sur'ati, hududlar kesimida (foizda)




2024- yilning yanvar-dekabr oylarida o'sish sur'ati **108,7** % ni tashkil qildi.

Ulushi, foizda



Hajmi, mlrd so'm



Viloyat chakana savdo tovar aylanmasida eng yuqori ulushni Guliston shahri 35,0 % bilan 2 273,9 mlrd so'mni tashkil etdi.


Viloyat chakana savdo tovar aylanmasida eng quyi ulushni esa, Shirin shahri 1,3 % bilan 87,5 mlrd so'mni tashkil etdi.

2023 - yilning mos davriga nisbatan, chakana savdo tovarlar aylanmasida barcha hududlarda o'sish kuzatildi.



Kichik biznes va xususiy tadbirkorlik korxonalarining eng yuqori o'sish sur'atiga ega hududlar (foizda)

Kichik biznes va xususiy tadbirkorlik subyektlarining chakana savdo tovar aylanmasi hajmi 2024 - yilning yanvar-dekabr oylarida statistik hisob-kitoblarga ko'ra, 6 124,3 mlrd so'mni tashkil etib, 2023-yilning yanvar-dekabr oylariga nisbatan 10,2 % ga oshdi. Viloyat miqyosida ushbu sektorning jami chakana savdo tovar aylanmasidagi ulushi 94,3 % ni tashkil etdi.




Yirik korxonalarning eng yuqori o'sish sur'atiga ega hududlar (foizda)

Chakana savdo tovar aylanmasi tarkibida yirik korxonalarning tovar aylanmasi hajmi, 2023- yilning yanvar-dekabr oylariga nisbatan 11,9 % ga kamaydi va 371,1 mlrd so'mni tashkil qildi. Bu esa umumiy savdo hajmining 5,7 % ulushiga to'g'ri keldi.



CHAKANA SAVDO AYLANMASIDA YIRIK KORXONALAR, KICHIK BIZNES VA XUSUSIY TADBIRKORLIK SUBYEKTLARINING HUDUDLAR KESIMIDA ULUSHI, (foizda)



 Yirik korxonalar

 Kichik biznes va xususiy tadbirkorlik

Tahliliy natijalarga ko'ra, chakana savdo tovar aylanmasida kichik biznes va xususiy tadbirkorlik subyektlarining ulushi bo'yicha Shirin sh. (100,0 %), Oqoltin (99,0 %) va Xovos (99,5 %) hududlari yetakchilik qilmoqda. Chakana savdo tovar aylanmasi tarkibida yirik korxonalarning ulushi 5,7 % ni tashkil etib, eng katta ulush Guliston sh. (10,7 %) va Sardoba (2,0 %), Yangiyer sh. (4,8 %), Sirdaryo (2,3 %) tumanlarida kuzatildi.

5,7 %



94,3 %



 Yirik korxonalar

 Kichik biznes va xususiy tadbirkorlik



Hududlar kesimida ma'lumot, *ming so'mda*

Guliston sh.

22 580,5

Shirin sh.

4 509,4

Yangiyer sh.

11 715,7

Boyovut

2 471,5

Guliston

3 666,7

Mirzaobod

5 311,9

Oqoltin

5 356,3

Sardoba

2 750,7

Sayxunobod

3 005,4

Sirdaryo


7 618,7

Xovos

2 236,7

2024- yilning yanvar-dekabr holatiga o'rtacha aholi jon boshiga chakana savdo tovar aylanmasi 7 041,9 ming so'mni (2023- yilning yanvar-dekabr oylariga nisbatan 106,7 %) tashkil etdi.


Ushbu ko'rsatkichni hududlar kesimida solishtirilganda eng yuqori hajm Guliston shahri (22 580,5 ming so'm), Yangiyer shahri (11 715,7 ming so'm) va Sirdaryo (7 618,7 ming so'm) tumani hissasiga to'g'ri keldi.



Ichki savdo ko'rsatkichlarini shakllantirishda **uyushmagan savdo tovar aylanmasi** ham hisoblanadi. Bunga dehqon (oziq-ovqat) bozori hamda chorva mollari, parrandalar va boshqa hayvonlar bozorida jismoniy shaxslar tomonidan amalga oshirilgan savdo hajmlari kiradi. Uyushmagan savdo tarkibiga jismoniy shaxslar (dehqonlar)ning uy xo'jaligida o'z kuchlari bilan yetishtirgan qishloq xo'jaligi mahsulotlari hisobga olinadi.



Hududlar kesimida uyushmagan savdo tovar aylanmasi o'sish sur'ati (2024- yil yanvar-dekabr), foizda



Dehqon bozorlari



Chorva bozorlari

Dehqon (oziq-ovqat) bozori – keng turdagi qishloq xo'jaligi oziq-ovqat mahsulotlarining va uni qayta ishlashdan olinadigan mahsulotlarning savdo rastalari, savdo o'rinlari, turg'un savdo shoxobchalari (shu jumladan savdo pavilonlari, kioskalari)dan foydalangan holda chakana savdoni tashkil etgan doimiy yoki vaqtincha amal qiluvchi mulkiy kompleks hisoblanadi.


Hududlar kesimida uyushmagan savdo hajmi va o'sish sur'atlari (2024 yil yanvar-dekabr)

	Jami, mlrd so'm	2023- yil yanvar- dekabr oylariga nisbatan, foizda
Sirdaryo viloyati	532,1	111,5
Guliston sh.	80,8	106,4
Shirin sh.	-	-
Yangiyer sh.	25,1	146,1
<i>tumanlar:</i>		
Boyovut	15,6	128,7
Guliston	72,9	96,9
Mirzaobod	74,2	118,2
Oqoltin	-	-
Sardoba	88,0	133,8
Sayxunobod	87,0	103,2
Sirdaryo	33,9	129,6
Xovos	54,6	94,3


* – xo'jalik yurituvchi subyektlar va yakka taribdagi tadbirkorlar (YATT)ni qo'shmagan holatda;

– jismoniy shaxslar (dehqonlar)ning uy xo'jaligida o'z kuchlari bilan yetishtirgan qishloq xo'jaligi mahsulotlari va chorva (parranda) mollari sotilishi hisobga olingan.

Hududlar kesimida uyushmagan savdo tovar aylanmasi o'sish sur'atlari (2024- yil yanvar-dekabr)



Hududlar kesimida uyushmagan savdo tovar aylanmasi hajmi, mlrd so'm (2024- yil yanvar-dekabr)



Viloyat bo'yicha 2024-yilning yanvar-dekabr oylarida uyushmagan savdo tovar aylanmasi 532,1 mlrd so'mni tashkil etib, 2023-yilning yanvar-dekabr oylariga nisbatan 111,5 % ni tashkil etdi. Shu jumladan, 12 bozor va 12 bozor (chorva) (oylik) kuzatuvlari ma'lumotlariga asosan, dehqon bozorlarida savdo faoliyati bilan shug'ullanuvchi jismoniy shaxslarning uy xo'jaliklarida yetishtirgan mahsulotlarini sotish hajmi 171,0 mlrd so'mni (122,7 %), chorva mollari va parrandalar sotuvchi jismoniy shaxslarning savdo aylanmasi hajmi 361,1 mlrd so'mni tashkil etdi (106,8 %).

2024 - yilning yanvar-dekabr oylarida viloyatning barcha hududlarida joylashgan dehqon bozorlarida qishloq xo'jaligi mahsulotlarini sotuvchi jismoniy shaxslarning tanlanma kuzatuvini o'tkazildi. Kuzatuv natijalariga ko'ra savdo aylanmasi hajmi 171,0 mlrd so'mni tashkil qildi. Bunda asosiy yirik hajm yangi uzilgan qishloq xo'jaligi mahsulotlari savdosiga (76,0 mlrd so'm) to'g'ri keldi.

Uyushmagan savdo aylanmasida qishloq xo'jaligi mahsulotlari savdosi hajmi va ulushi

Yangi uzilgan qishloq xo'jaligi mahsulotlari 76,0 mlrd so'm  44,5 %	Non va non mahsulotlari 32,2 mlrd so'm  18,8 %	Don mahsulotlari (mosh, loviya, guruch va boshqalar) 16,2 mlrd so'm  9,5 %
Tovuq go'shti 10,7 mlrd so'm  6,3 %	Qurilgan qishloq xo'jaligi mahsulotlari (yong'oq, bodom, pista va boshqalar) 10,2 mlrd so'm  6,0 %	Tuxum 9,2 mlrd so'm  5,4 %
Ziravorlar 5,0 mlrd so'm  2,9 %	Sut va sut mahsulotlari 4,7 mlrd so'm  2,8 %	Chorva mollari va parrandalari uchun har xil yem – xashak 0,7 mlrd so'm  0,4 %
Tuzlamalar 3,3 mlrd so'm  1,8 %	Gullar, o'simlik va nihol ko'chatlari 1,4 mlrd so'm  0,8 %	Nooziq-ovqat tovarlar 1,4 mlrd so'm 0,8 %

2024- yilning yanvar-dekabr oylarida, viloyatning barcha hududlarida joylashgan chorva (parranda) bozorlarida parrandalar va chorva mollari sotuvchi jismoniy shaxslar tanlanma kuzatuvini o'tkazildi. Kuzatuv natijalariga ko'ra savdo aylanmasi hajmi 361,1 mlrd so'mni tashkil etdi. Bunda har-xil yoshdagi qoramollar savdosi 293,1 mlrd so'm, qo'y va echkilar – 43,8 mlrd so'mni, otlar – 23,3 mlrd so'mni, parrandalar – 0,9 mlrd so'mni tashkil qildi.

**Uyushmagan savdo aylanmasida chorva
mollari (parrandalar) savdosi hajmi va ulushi**

2 yoshdan katta bo'lgan qoramollar 152,1 mlrd so'm  42,1 %	1 yoshdan 2 yoshgacha bo'lgan yosh mollar 64,8 mlrd so'm  18,0 %	1 yoshgacha bo'lgan yosh mollar 76,1 mlrd so'm  21,1 %
Qo'ylar 34,5 mlrd so'm  9,5 %	Otlar 23,3 mlrd so'm  6,5 %	Echkilar 9,3 mlrd so'm  2,6 %
Kurka, o'rdak, g'oz 0,3 mlrd so'm  0,1 %	Tovuqlar 0,5 mlrd so'm  0,1 %	Quyionlar 0,1 mlrd so'm  0,03 %
Qushlar 0,1 mlrd so'm  0,02%		

UMUMIY OVQATLANISH KORXONALARI SAVDO AYLANMASI

2025- yil 1- yanvar holatiga umumiy ovqatlanish sohasida faoliyat yuritayotgan tijorat korxonalari soni 656 tani tashkil qildi.

	Jami mlrd so‘m	2023- yil yanvar- dekabr oylariga nisbatan, foizda
Sirdaryo viloyati	3 664,3*)	110,1
Guliston sh.	104,9	114,2
Shirin sh.	3,4	113,2
Yangiyer sh.	24,1	112,4
<i>tumanlar:</i>		
Boyovut	8,0	113,6
Guliston	22,0	110,7
Mirzaobod	21,6	111,4
Oqoltin	16,9	117,0
Sardoba	3,3	110,8
Sayxunobod	8,1	110,8
Sirdaryo	19,2	112,5
Xovos	2,0	113,6

*) Hududlarga taqsimlanmagan hajmni hisobga olgan holda

2024- yilning yanvar-dekabr oylarida ovqatlanish korxonalarining savdo aylanmasi 3 664,3 mlrd so‘mga yetdi. 2023- yilning mos davriga nisbatan 10,1 % ga oshdi. Bunda savdo aylanmasining 94,5 % ulushi kichik biznes va xususiy tadbirkorlik subyektlari hissasiga to‘g‘ri keldi.




Avtotransport vositalari va ularning ehtiyot qismlari ulgurji va chakana savdo aylanmasi

Hududlar kesimida ma'lumot

	Hajmi, mlrd so'm	Ulushi, foizda
Sirdaryo viloyati	543,8	100,0
Guliston sh.	82,9	15,2
Shirin sh.	0,8	0,1
Yangiyer sh.	6,6	1,2
<i>tumanlar:</i>		
Boyovut	3,2	0,6
Guliston	23,9	4,4
Mirzaobod	1,4	0,3
Oqoltin	178,4	32,8
Sardoba	30,3	5,6
Sayxunobod	2,7	0,5
Sirdaryo	212,1	39,0
Xovos	1,5	0,3


Ushbu ko'rsatkichni hududlar kesimida solishtirilganda eng yuqori hajm Guliston shahri (82,9 mlrd so'm), Oqoltin (178,4 mlrd so'm) va Sirdaryo (212,1 mlrd so'm) tumanlari hissasiga to'g'ri kelmoqda.

Avtotransport vositalari va ularning ehtiyot qismlari ulgurji va chakana savdo aylanmasi. (mlrd so'm)




2024- yilning yanvar-dekabr oylarida avtotransport vositalari va ularning ehtiyot qismlari ulgurji va chakana savdo aylanmasi (*motorli transport vositalarini ta'mirlash va texnik xizmat ko'rsatishdan tashqari*) 543,8 mlrd so'mni tashkil etdi va o'tgan yilning mos davriga nisbatan 54,0 % ga oshdi. Shuningdek, kichik biznes va xususiy tadbirkorlik subyektlari savdo hajmi – 530,0 mlrd so'mni (o'sish sur'ati – 55,8 %), xususiy tadbirkorlik subyektlari savdo hajmi 13,9 mlrd so'mni (o'sish sur'ati 7,0 %) tashkil qildi.

Avtotransport vositalari va ularning ehtiyot qismlari ulgurji va chakana savdo aylanmasi o'sish sur'ati, foizda



Ulgurji savdo tovar aylanmasi – qayta sotish maqsadida sotib olingan va tadbirkorlik faoliyatida foydalanish yoki o'z foydalanishi (qayta ishlash) uchun uchinchi tomon tashkilotlari va yakka tartibdagi tadbirkorlarga o'zgartirmagan holda jo'natilgan tovarlarning ushbu tovarlar uchun haq to'lanadigan yoki to'lanmaganligidan qat'iy nazar qiymati.

Hududlar kesimida ulgurji savdo tovar aylanmasi hajmi, mlrd so'mda



Viloyat bo'yicha 2024- yilning yanvar-dekabr oylarida ulgurji savdo tovar aylanmasi 6 671,4 mlrd so'mni tashkil etib, 2023- yilning mos davriga nisbatan 9,2 % ga o'sdi.

Savdo aylanmasi va ulushi



Kichik biznes subyektlarining ulgurji savdo aylanmasi statistik hisoblarga qaraganda 6 429,2 mlrd so'mni tashkil qilib, 2023- yilning mos davriga nisbatan 122,5 % ga to'g'ri keldi. Viloyatda ushbu sektorning ulgurji savdo hajmidagi ulushi 96,4 % ni tashkil qildi.

ULGURJI SAVDO AYLANMASIDA YIRIK VA KICHIK BIZNES KORXONALARI SAVDO HAJMI VA O‘SISH SUR‘ATI

2025- yil 1- yanvar holatiga ulgurji savdo sohasida faoliyat ko‘rsatayotgan tijorat korxonalari soni 959 tani tashkil etib, shundan, faoliyat ko‘rsatayotgan yirik korxonalar soni 23 tani, kichik korxona va mikrofirmalar soni 936 tani tashkil qildi.

Ulgurji savdo tovar aylanmasida yuqori o‘shish sur‘atlariga eng yirik korxonalar Yangiyer sh. (127,8) hamda Sardoba (117,4), Guliston (123,3), Sirdaryo (121,0) tumanlarida kuzatildi.

	Jami mlrd so‘m	2023- yil yanvar- dekabr oylariga nisbatan, foizda
Sirdaryo viloyati	6 671,4*)	109,2
Guliston sh.	1 590,4	111,7
Shirin sh.	60,6	111,4
Yangiyer sh.	364,2	127,8
<i>tumanlar:</i>		
Boyovut	301,3	79,2
Guliston	203,1	123,3
Mirzaobod	232,3	119,9
Oqoltin	200,0	94,9
Sardoba	182,0	117,4
Sayxunobod	326,4	71,8
Sirdaryo	1 898,4	121,0
Xovos	181,0	101,5

*) Hududlarga taqsimlanmagan hajmni hisobga olgan holda